Tadqiqot.uz

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 10 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 10

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 10

ТОШКЕНТ-2026

ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ | LOOK TO THE PAST
№10 (2026) DOI http://dx.doi.org/10.26739/2181-9599-2026-10

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик, Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адҳам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc), Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбобоевич
Тарих фанлари доктори (DSc) Шаҳрисабз далат педагогика институти

Ғоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қарши давлат техника университети

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Қарши давлат университети

Маҳкамова Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc), Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc), Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор, Қозоғистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc), Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc), Доғистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогока университети

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент, Азербайджон давлат иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Гулистон давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент, Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор, Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор, Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Жиззах давлат педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат техника университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент, Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоқов Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент, Наманган давлат университети

Тўхтабаев Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти Ўзбекистон Миллий университети

Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доценти, Денов тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

Абдуносирова Озодахон Ботиржон қизи
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Фарғона давлат университети

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Миллий университети

Page Maker | Верстка | Са ,ифаловчи: Xurshid Mirzaxmedov

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Laziz Alimardonov
YOSHLARNING AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MA’NAVIY TEXNOLOGIYALARNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI……5

2. Doniyor Jumaniyozov
XIV–XV ASRLARDA XORAZMNING SAVDO TIZIMIDAGI O‘RNI: SHAHARLAR, KARVON YO‘LLARI VA NUMIZMATIK MANBALAR TAHLILI……11

3. Nilufar Djurayeva
O‘ZBEKISTONDA SOVET DAVRI VA MUSTAQILLIK YILLARIDA XOTIN-QIZLARNING IJTIMOIY FAOLLASHUVIGA DOIR DAVLAT SIYOSATI: TARIXIY EVOLYUTSIYA VA QIYOSIY TAHLIL……17

4. Baxtiyor Mirkomilov
BADIIY QADRIYATLAR – MILLIY BOYLIK VA JAHON DURDONALARI SIFATIDA……30

5. Murod Raxmatov
AHMAD ZAKI VALIDIY TO‘G‘ONNING XORIJDAGI ILMIY FAOLIYATI……39

6. Nilufar Raxmatova
GLOBALLASHUV JARAYONIDA YOSHLARNI MILLIY G‘OYA, MA’NAVIYAT VA TARIXIY MEROS AN’ANASIDA TARBIYALASH TAMOYILLARI……46

7. Raxmatjon Saotboyev
XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR…53

8. Ikromjon Umarov
XX ASR BIRINCHI CHORAGIDA SURXON-SHEROBOD VOHASIDA SUG‘ORISH INSHOOTLARI VA SUVDAN FOYDALANISHNING AN’ANAVIY SHAKLLARI……..58

9. Ra’no Xatamova
O‘ZBEKISTONDA XIX-XXI ASR GILAMDO‘ZLIK TARIXINING MANBASHUNOSLIGI…65

10. Raxim Xudoyberdiyev
TERMIZ VA CHAG‘ONIYON HUDUDLARIDA SIRLANGAN KERAMIKANING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI……70

11. Муродилла Ҳайдаров
ОКТЯБР ТЎНТАРИШИ: БОЛЬШЕВИКЛАРНИНГ СОЦИАЛ ТАЖРИБАСИ ВА ҲАРАКАТЛАНТИРУВЧИ КУЧЛАР НИСБАТИ……76

12. Озоджон Қувондиқов
ЎЗБЕКИСТОН ВА ГЕРМАНИЯ ЎРТАСИДАГИ ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА КОНРАД АДЕНАУЭР ЖАМҒАРМАСИНИНГ ЎРНИ……85

JOURNAL OF LOOK TO THE PAST
ЎТМИШГА НАЗАР | ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
ISSN: 2181-9599
www.tadqiqot.uz

Raxmatjon Madamin o‘g‘li Saotboyev,
Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
rsaotboyev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6896-3849

XVIII–XX ASR BOSHLARIDA MARKAZIY OSIYO XONLIKLARINING SIYOSIY - BOSHQARUV TIZIMI VA TASHQI SIYOSIY OMILLAR TA’SIRIDAGI O‘ZGARISHLAR

For citation: Raxmatjon M. Saotboyev. POLITICAL AND ADMINISTRATIVE SYSTEM OF CENTRAL ASIAN KHANATES IN THE 18TH – EARLY 20TH CENTURIES AND CHANGES UNDER THE INFLUENCE OF FOREIGN POLICY FACTORS. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 10.

http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.23674270

ANNOTATSIYA

Tadqiqot XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Markaziy Osiyodagi Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligining siyosiy boshqaruv tizimi, sulolaviy hokimiyatning shakllanishi, markazlashuv jarayonlari hamda tashqi siyosiy bosim sharoitidagi davlat boshqaruvi tizimining o‘zgarishi qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda mahalliy tarixnavislik asarlari, tarixiy manbalar va ilmiy tadqiqotlardan foydalanildi. Xiva xonligida Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyatni mustahkamlashi, Buxoro amirligida Mang‘itlar sulolasining siyosiy mavqei va markaziy boshqaruvni kuchaytirish siyosati, Qo‘qon xonligida Minglar sulolasi davridagi hududiy kengayish va ichki siyosiy raqobat jarayonlari o‘zaro qiyoslandi.

Kalit so‘zlar: Qo‘ng‘irotlar, Mang‘itlar, Minglar, siyosiy boshqaruv, markazlashuv, davlat o‘zgarishi, Rossiya imperiyasi, siyosiy qaramlik.

Саотбоев Рахматжон Мадамин угли,
Самостоятельный исследователь
Ургенчского государственного университета
rsaotboyev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6896-3849

ПОЛИТИКО-УПРАВЛЕНИЕ СИСТЕМА ХАНСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ В XVIII – НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ И ИЗМЕНЕНИЯ ПОД ВЛИЯНИЕМ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ

АННОТАЦИЯ

В исследовании в сравнительном ключе анализируются система политического управления, формирование династийной власти, процессы централизации и трансформация государственного управления в условиях внешнеполитического давления в Хивинском ханстве, Бухарском эмирате и Кокандском ханстве во второй половине XVIII — начале XX века. В работе использованы произведения местной историографии, исторические источники и научные исследования. Сопоставлены процессы укрепления власти династии Кунгратов в

Хиве, политическое положение и политика усиления центрального управления династии Мангытов в Бухаре, а также территориальное расширение и внутриполитическая конкуренция в период правления династии Мингов в Коканде.

Ключевые слова: Кунграты, Мангыты, Минги, политическое управление, централизация, государственная трансформация, Российская империя, политическая зависимость.

Raxmatjon M. Saotboyev,
Independent Researcher at Urgench State University
rsaotboyev@gmail.com
https://orcid.org/0009-0007-6896-3849

POLITICAL AND ADMINISTRATIVE SYSTEM OF CENTRAL ASIAN KHANATES IN THE 18TH – EARLY 20TH CENTURIES AND CHANGES UNDER THE INFLUENCE OF FOREIGN POLICY FACTORS

ABSTRACT

This study comparatively analyzes the political governance system, the formation of dynastic power, centralization processes, and the transformation of state administration under the influence of foreign political pressure in the Khiva Khanate, the Bukhara Emirate, and the Kokand Khanate during the second half of the 18th and the early 20th centuries. The research utilizes local historiographical works, historical sources, and scholarly studies. It compares the consolidation of power by the Kungrat dynasty in Khiva, the political position and central governance strengthening policy of the Mangyt dynasty in Bukhara, as well as the territorial expansion and internal political competition during the rule of the Ming dynasty in Kokand.

Index Terms: Kungrats, Mangyts, Mings, political governance, centralization, state transformation, Russian Empire, political dependency.

Kirish (Introduction):

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Markaziy Osiyo hududida mavjud bo‘lgan siyosiy tuzilmalarda sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi o‘ziga xos siyosiy boshqaruv tizimiga ega bo‘lib, hududiy yaxlitlikni ta’minlash, mahalliy hokimiyat vakolatlarini muvofiqlashtirish hamda markaziy hokimiyatni mustahkamlash masalalariga alohida e’tibor qaratdilar. Mazkur jarayonlar bir vaqtning o‘zida ichki siyosiy raqobat, sulolaviy almashinuvlar, mahalliy hukmdorlarning mustaqillikka intilishi va tashqi siyosiy bosim bilan kechdi.

Xiva xonligida XVIII asrning ikkinchi yarmidagi siyosiy beqarorlik markaziy hokimiyatning zaiflashuviga olib kelgan bo‘lsa, Muhammad Amin Inoq faoliyati natijasida davlat boshqaruvida nisbiy barqarorlikka erishish uchun sharoit yaratildi. Keyinchalik 1804-yilda Eltuzar Inoqning xon sifatida taxtga chiqishi Qo‘ng‘irotlar sulolasi hukmronligining boshlanishini anglatdi [1; 84-b.].

Buxoroda esa XVIII asr o‘rtalarida Ashtarxoniylar sulolasining siyosiy mavqei susayib, Mang‘itlar sulolasining hokimiyatga kelishi bilan davlat boshqaruvida yangi siyosiy bosqich boshlandi. Muhammad Rahim davrida markaziy hokimiyatni qayta tashkil etish va davlat hududlarini siyosiy jihatdan birlashtirishga intilish kuchaydi [8; 17-b.].

Qo‘qon hududida esa XVIII asr boshlarida shakllangan siyosiy birlik keyinchalik Farg‘ona vodiysining muhim davlat markaziga aylandi. XIX asr boshlarida Olimxon va Umarxon davrida markaziy hokimiyatning kuchayishi, hududiy kengayish hamda ma’muriy boshqaruvning takomillashuvi kuzatildi.

Mazkur davlatlarning siyosiy tarixini qiyosiy o‘rganish ularning davlat boshqaruvi bir xil model asosida emas, balki hududiy, sulolaviy va ijtimoiy sharoitlarga mos ravishda shakllanganligini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili (Literature review):

Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tizimli, xronologik va manbashunoslik metodlaridan foydalanildi. Xiva, Buxoro va Qo‘qon davlatlarining siyosiy boshqaruv tizimlari alohida-alohida emas, balki yagona tarixiy jarayonning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilindi.

Manbashunoslik yondashuvi asosida mahalliy tarixnavislik asarlari, sayohatnomalar va tarixiy tadqiqotlarda keltirilgan ma’lumotlar o‘zaro qiyoslandi. Xiva tarixini o‘rganishda Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari, shuningdek, N.N. Muravevning Xivaga oid kuzatuvlari muhim ma’lumot manbasi sifatida xizmat qiladi [3; 8-b.], [4; 61-b.].

Boshqaruv tizimining ijtimoiy xususiyatlarini aniqlashda davlat lavozimlari, saroy ma’muriyati, markaziy va mahalliy hokimiyat munosabatlari hamda hukmdor vakolatlari asosiy tahlil obyektlari sifatida belgilandi [2; 86, 90–94-b.].

Shuningdek, tadqiqotda manbalardagi xronologik tafovutlar va tarixiy voqealarning turlicha talqin qilinishi hisobga olindi. Shu sababli ayrim siyosiy jarayonlar aniq bir voqea doirasida emas, balki uzoq davom etgan tarixiy o‘zgarishlari sifatida baholandi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research methodology):

Tadqiqot jarayonida tizimlilik, qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy rekonstruksiya va retrospektiv tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results):

XVIII asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligida siyosiy hokimiyatning zaiflashuvi, saroydagi raqobat va mahalliy urug‘-qabila kuchlarining ta’siri kuchaydi. Bunday vaziyatda Muhammad Amin Inoqning siyosiy maydonga chiqishi davlat boshqaruvida yangi bosqichni yuzaga keltirdi. U markaziy hokimiyatni tiklash, ichki tartibni mustahkamlash va tashqi xavflarni kamaytirishga intildi [1; 84-b.]. Xiva tarixiga oid manbalarda mazkur davr ichki siyosiy kurashlar va hokimiyat uchun raqobat bilan tavsiflanadi. Munis va Ogahiy asarlarida davlat hududlarini qayta birlashtirish, mahalliy hukmdorlar faoliyati va saroy siyosatiga oid muhim ma’lumotlar berilgan [3; 8-b.].

1804-yilda Eltuzarning xon sifatida taxtga chiqishi Qo‘ng‘irotlar sulolasining siyosiy hukmronligini rasman mustahkamladi. Eltuzardan keyin Muhammad Rahimxon I davrida markaziy boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan choralar ko‘rildi. Mehtar, qushbegi, devonbegi kabi mansablarning faoliyati davlat boshqaruvining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylandi [2; 90–94-b.].

Muhammad Rahimxon I davrida pul muomalasining tartibga solinishi, oltin va kumush tangalar zarb qilinishi ham markaziy hokimiyatning iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan [6; 150-b.]. Olloqulixon davrida esa mudofaa inshootlari, saroy va shahar infratuzilmasining rivojlantirilishi davlat markazining siyosiy va iqtisodiy salohiyatini oshirdi [5; 150-b.].

XIX asrning ikkinchi yarmida Xiva xonligi tashqi siyosiy bosimning kuchayishi bilan yuzma-yuz keldi. Muhammad Rahimxon II – Feruz davrida 1873-yilgi Gandimiyon shartnomasi xonlikning tashqi siyosiy mustaqilligini keskin chekladi. Shundan so‘ng Xiva Rossiya imperiyasi siyosiy ta’sir doirasiga kirdi [6; 163-b.].

XVIII asr o‘rtalarida Buxoroda Ashtarxoniylar siyosiy hokimiyatining zaiflashuvi natijasida Mang‘itlar sulolasi kuchayib bordi. Muhammad Rahim Mang‘it siyosiy hokimiyatni qo‘lga kiritib, 1756-yildan boshlab davlat boshqaruvining yangi sulolaviy bosqichiga asos soldi [8; 17-b.]

Mang‘itlar Chingizxon avlodidan bo‘lmaganligi sababli ularning siyosiy legitimligi masalasi o‘ziga xos shaklda namoyon bo‘ldi. Hukmdorlar “xon” emas, “amir” unvonidan foydalanish orqali o‘z siyosiy maqomini belgiladilar. Bu holat Buxoro davlat boshqaruvida sulolaviy hokimiyat va an’anaviy siyosiy legitimlik o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xosligini ko‘rsatadi.

Doniyolbiy davrida markaziy hokimiyat nisbatan zaif bo‘lgan bo‘lsa, Shohmurod hukmronligi davrida davlat boshqaruvini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Soliq, moliya, sud va ma’muriy boshqaruv sohalarida tartibga solish ishlari olib borildi [9; 97–98-b.].

Keyingi davrda Amir Haydar va Amir Nasrullo markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosatini davom ettirdilar. Ayniqsa, Nasrullo hukmronligi davrida hududiy hokimlar ustidan nazoratni kuchaytirish va markaziy hokimiyatga bo‘ysunishni ta’minlashga katta e’tibor berildi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi bilan munosabatlari yangi bosqichga kirdi. 1868-yildagi harbiy mag‘lubiyat va undan keyingi kelishuvlar amirlikning tashqi siyosiy mustaqilligini keskin chekladi. Natijada Buxoro amirligi ichki boshqaruv jihatidan o‘z hukmdorini saqlab qolgan holda, tashqi siyosatda Rossiya imperiyasiga qaram davlatga aylandi [10; 299-b.].

Farg‘ona vodiysida XVIII asr boshlarida shakllangan siyosiy hokimiyat keyinchalik Qo‘qon xonligining tashkil topishiga zamin yaratdi. Minglar sulolasi vakillari hududiy hokimiyatni mustahkamlash va Farg‘ona vodiysidagi siyosiy markazlarni birlashtirishga intildilar.

XIX asr boshlarida Olimxon davrida davlat hududining kengayishi va harbiy salohiyatning kuchayishi kuzatildi. 1805-yildan boshlab “xon” unvonining qo‘llanishi siyosiy hokimiyatning yangi maqomini ifodaladi.

Umarxon hukmronligi davrida Qo‘qon xonligi hududiy jihatdan kengayish bilan bir qatorda shaharsozlik, sug‘orish, masjid va madrasalar qurilishi hamda adabiy-madaniy jarayonlarning rivojlanishi bilan ajralib turdi. Bu jarayonlar davlat markazining siyosiy nufuzini oshirish bilan birga, saroy madaniyatining rivojlanishiga ham ta’sir ko‘rsatdi.

Keyingi davrda ichki siyosiy raqobatning kuchayishi xonlikning markazlashuv jarayonini murakkablashtirdi. Saroy amaldorlari, qabila va urug‘ boshliqlari hamda harbiy guruhlarning siyosiy ta’siri hokimiyat uchun kurashlarning muhim omiliga aylandi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy ekspansiyasi Qo‘qon xonligining siyosiy mustaqilligini cheklab bordi. 1865-yilda Toshkentning Rossiya tomonidan egallanishi, keyinchalik Farg‘ona vodiysidagi harbiy-siyosiy bosimning kuchayishi xonlikning hududiy va siyosiy imkoniyatlarini sezilarli darajada qisqartirdi [11; 247-b.].

1875–1876-yillardagi siyosiy voqealar natijasida Qo‘qon xonligi tugatilib, uning hududida Farg‘ona viloyati tashkil etildi. Shu tariqa Farg‘ona vodiysida mustaqil sulolaviy davlat boshqaruvi barham topdi.

Xiva, Buxoro va Qo‘qon davlatlarining XVIII asrning ikkinchi yarmi – XIX asr davomida rivojlanish jarayonlarini qiyoslash ularning siyosiy tizimlarida umumiy va farqli jihatlar mavjud bo‘lganini ko‘rsatadi.

Birinchidan, uch davlatda ham sulolaviy hokimiyat davlat siyosiy tizimining asosiy tayanchi bo‘lgan. Xivada Qo‘ng‘irotlar, Buxoroda Mang‘itlar, Qo‘qonda Minglar sulolalari davlat hokimiyatini o‘z qo‘llarida jamlagan.

Ikkinchidan, markaziy hokimiyatni mustahkamlash jarayoni uch davlatda turli sur’atlarda kechgan. Xivada bu jarayon Muhammad Amin Inoq va Qo‘ng‘irotlar hukmronligi bilan bog‘liq bo‘lsa, Buxoroda Shohmurod va Nasrullo davrlarida, Qo‘qonda esa Olimxon va Umarxon hukmronligi davrida kuchaydi [2; 90–94-b.], [9; 97–98-b.].

Uchinchidan, davlat boshqaruvida saroy amaldorlari va mahalliy hokimlarning o‘zaro munosabati muhim ahamiyat kasb etgan. Mehtar, qushbegi, devonbegi kabi lavozimlarning faoliyati davlat boshqaruvining institutsional asoslarini tashkil qilgan [12; 14-b.].

Shunday qilib, mazkur davlatlarning XX asr boshlaridagi siyosiy holatini faqat ichki inqiroz bilan izohlash yetarli emas. Ichki siyosiy raqobat, markazlashuvning cheklanganligi va tashqi harbiy-siyosiy bosim o‘zaro bog‘liq jarayonlar sifatida qaralishi lozim [13; 303–325-b.].

Xulosa (Conclusion):

XVIII asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Xiva xonligi, Buxoro amirligi va Qo‘qon xonligi siyosiy boshqaruv tizimida murakkab transformatsion jarayonlar yuz berdi.

Xiva xonligida Qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyatga kelishi markaziy siyosiy boshqaruvni qayta tashkil etish jarayonini kuchaytirdi.

Buxoroda Mang‘itlar sulolasi hokimiyatni egallagach, amirlik shaklidagi davlat boshqaruvi qaror topdi va markazlashuv siyosati turli hukmdorlar davrida davom etdi. Qo‘qon xonligida XVIII–XIX asrlarda hududiy kengayish va markazlashuv jarayonlari bilan bir qatorda saroy guruhlari va mahalliy elitalar o‘rtasidagi raqobat ham kuchli bo‘ldi.

Uch davlatning siyosiy rivojlanishidagi umumiy jihatlardan biri markaziy hokimiyatni mustahkamlashga intilish bo‘lsa, farqli jihati mazkur jarayonlarning ijtimoiy va hududiy sharoitlarga bog‘liq holda turlicha kechganidir.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasining harbiy-siyosiy ekspansiyasi Markaziy Osiyodagi davlatlarning suverenitetini keskin chekladi. Qo‘qon xonligi tugatildi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa siyosiy qaramlik sharoitida faoliyat yuritdi.

XX asr boshlaridagi siyosiy o‘zgarishlar natijasida 1920-yilda Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham tugatilib, mintaqadagi an’anaviy sulolaviy davlat boshqaruvi davri yakunlandi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. A’zamova G.A. Xivaning xonlik poytaxtiga aylanishi va rivojlanishiga oid ba’zi ma’lumotlar // O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar. – Toshkent, 1997. – №7–8. – B. 84. (Azamova, G. A. (1997). Some information on the transformation of Khiva into the capital of the khanate and its development. Social Sciences in Uzbekistan, (7–8), 84.)

2. Yuldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. – Toshkent: O‘zdav nashr, 1959. – B. 86, 90–94. (Yuldoshev, M. (1959). Feudal land ownership and state structure in the Khanate of Khiva. Tashkent: O‘zdavnashr, pp. 86, 90–94.)

3. Munirov Q. Munis, Ogahiy va Bayoniyning tarixiy asarlari. – Toshkent, 1960. – B. 8. (Munirov, Q. (1960). Historical works of Munis, Agahi and Bayani. Tashkent, p. 8.)

4. Muravev N.N. Puteshestvie v Turkmeniyu i v Khivu. – Moskva, 1822. – Ch. 2. – S. 61. (Muravyov, N. N. (1822). Journey to Turkmenistan and Khiva (Part 2, p. 61). Moscow.)

5. Mutalov O. Xiva xonligi Olloqulixon davrida: Tarix fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2003. – 150 b. (Mutalov, O. (2003). The Khanate of Khiva during the reign of Allahqulikhan: Diss. Candidate of Historical Sciences. Tashkent, 150 p.)

6. Xudoyberganov K. Xorazm xonlari. – Toshkent: Akademnashr, 2019. – B. 150, 163. (Khudoyberganov, K. (2019). Khans of Khorezm. Tashkent: Akademnashr, pp. 150, 163.)

7. Polvonniyoz Hoji Yusupov. Yosh xivaliklar tarixi. – Urganch, 1999. – B. 7, 26. (Yusupov, P. H. (1999). History of the Young Khivans. Urgench, pp. 7, 26.)

8. Rajabov Q. Buxoro mang‘it amirlari. – Toshkent: Fan–Ochun, 2025. – B. 17. (Rajabov, Q. (2025). Mangit emirs of Bukhara. Tashkent: Fan-Ochun, p. 17.)

9. Mirzo Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008. – B. 97–98. (Mirzo Olim Makhdum Haji. (2008). History of Turkestan. Tashkent: Yangi Asr Avlodi, pp. 97–98.)

10. Mirza Salimbek. Tarixi Salimiy. Fors tilidan N. Yo‘ldoshev tarjimasi. – Buxoro: Buxoro nashriyoti, 2003. – B. 299. (Mirza Salimbek. (2003). Tarikh-i Salimiy. Translated from Persian by N. Yoldoshev. Bukhara: Buxoro Nashriyoti, p. 299.)

11. Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 247. (Ziyo, A. (2000). History of Uzbek statehood. Tashkent: Sharq, p. 247.)

12. Vohidov Sh., Xoliqova R. Markaziy Osiyoda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent, 2006. – B. 14. (Vohidov, Sh., & Kholiqova, R. (2006). History of state administration in Central Asia. Tashkent, p. 14.)

13. Eshov B. O‘zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 303–325. (Eshov, B. (2012). History of state and local administration in Uzbekistan. Tashkent: Yangi Asr Avlodi, pp. 303–325.)

ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: http://www.tadqiqot.uz/; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000